

**URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.06.2021.Tar.55.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

OTAMURODOVA ROVIYAJON OLIMBOYEVNA

**XORAZMDA TARIXIY-MADANIY MEROSNI TIKLASH VA O'RGANISH
MUAMMOLARI**

07.00.01 – O'zbekiston tarixi

**Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Urganch – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Content of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)

Otamurodova RoviyaJon Olimboyevna

Xorazmda tarixiy-madaniy merosni tiklash va o‘rganish muammolari.....3

Отамуродова Ровияжон Олимбоевна

Проблемы восстановления и изучения историко-культурного наследия в Хорезме.....25

Otamurodova RoviyaJon Olimboyevna

Problems of restoration and study of historical-cultural heritage in Khorezm.....47

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works.....51

**URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.06.2021.Tar.55.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

OTAMURODOVA ROVIYAJON OLIMBOYEVNA

**XORAZMDA TARIXIY-MADANIY MEROSNI TIKLASH VA O'RGANISH
MUAMMOLARI**

07.00.01 – O'zbekiston tarixi

**Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Urganch – 2024

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.4.PhD/Tar985 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Urganch davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasiga (www.urdu.uz) hamda "ZiyoNet" axborot-ta'lim portali www.ziynet.uz manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Abdullayev Utkir Ismailovich,**
tarix fanlari doktori, professor.

Rasmiy opponentlar: **Qarliboyev Makset Abdibayevich,**
tarix fanlari doktori, katta ilmiy xodim,
Xudayberganov Komiljon,
tarix fanlari nomzodi, dotsent.

Yetakchi tashkilot: **Qoraqalpoq davlat universiteti.**

Dissertatsiya himoyasi Urganch davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.30.06.2021.Tar.55.05 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil "18 iyun" soat 10 : 00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 220100, Urganch shahri, Hamid Olimjon ko'chasi 14 uy. Tel.: (99862) 224-67-00; faks(99862) 224-57-00; e-mail: info@urdu.uz

Dissertatsiya matni bilan Urganch davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1323 raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 220100, Urganch shahri, Hamid Olimjon ko'chasi 14 uy. Tel.: (99862) 224-67-00, e-mail: arm@urdu.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "10" iyun kuni tarqatildi.

(2024-yil "10" iyun dagi 3 raqamli reestr bayonnomasi.)



M.K. Saribaev,
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, t.f.d., dotsent.

X.X. Matyakubov,
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, PhD., dotsent.

M.M. Matyakubova,
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi v.v.b, t.f.n., dotsent.

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Hozirgi davrda umumjahon madaniy merosi tarixi va sivilizatsiyalar taraqqiyotining o'ziga xos jihatlarini keng o'rganishga intilish tobora ortib bormoqda. Shu bois xalqaro tashkilotlar, xususan, YUNESKO tomonidan ishlab chiqilgan strategik dasturlarda moddiy va ma'naviy madaniyat obidalarini qayta tiklash va muhofaza qilish, ularni kelajak avlodga yetkazish kabi muhim maqsad katta ahamiyat kasb etmoqda. Bu borada tarixiy-madaniy merosni milliy va umuminsoniy qadriyatlar sifatida tadqiq va targ'ib qilish hamda uni asrab-avaylash dolzarb vazifalardan biri sanaladi.

Dunyo miqyosida Markaziy Osiyo, jumladan, O'zbekistonning boy o'tmishga ega madaniyati tarixini, uning jahon sivilizatsiyalari tizimida tutgan muhim o'rnini hisobga olgan holda, mazkur mintaqa tarixiy-madaniy merosini o'rganish va targ'ib qilish ishlariga katta e'tibor berilmoqda. Shuningdek, dunyoning ilmiy markazlarida mintaqadagi madaniy meros obyektlarini ta'mirlash va tiklash masalalariga oid tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati, ilmiy va ma'naviy-ma'rifiy ahamiyatidan YUNESKO Bosh konferensiyasining Qaroriga muvofiq Samarqand shahrida tashkil etilgan (1995) Markaziy Osiyoni tadqiq etish xalqaro instituti va turli ilmiy muassasalardagi izlanishlar hamda xalqaro gumanitar tashkilotlarning faoliyati ham darak bermoqda.

So'nggi yillar yangi O'zbekistonda xalqimiz madaniy an'alarining tarixiy ildizlarini bilish, milliy, ma'naviy qadriyatlarni tiklash va yuksaltirish hamda ularni sivilizatsiyaviy nuqtai nazardan ilmiy asosda o'rganish uchun keng imkoniyat yaratilib, mazkur soha masalalariga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilmoqda. Zero, "...Vatanimizning qadimiy va boy tarixini o'rganish, bu borada ilmiy tadqiqot ishlarini kuchaytirish, gumanitar soha olimlarini har tomonlama qo'llab-quvvatlashimiz lozim"¹. Shu bois O'zbekistonning turli tarixiy-madaniy markazlari qatorida Xorazm vohasidagi tarixiy yodgorliklar holatini aniqlash, moddiy va nomoddiy meros obyektlarini ta'mirlash va saqlash jarayonida ilg'or texnologiya va innovatsiya yutuqlaridan samarali foydalanish dolzarb ahamiyatga ega. Shuningdek, jamiyatda tarixiy-madaniy merosga nisbatan yangicha munosabatni shakllantirish, Xorazm vohasi misolida uni tiklash va o'rganish muammolarini ko'rib chiqish, voha madaniyatining Markaziy Osiyo sivilizatsiyalari tizimida tutgan o'rni va ahamiyatini aniqlab ilmiy xulosalar chiqarish O'zbekiston madaniyati tarixini yangi ma'lumotlar bilan boyitishga va tashviqot qilishga imkon beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 16-yanvardagi F-5181-son "Moddiy-madaniy va arxeologiya merosi obyektlarni muhofaza qilish va ulardan foydalanishni takomillashtirish to'g'risida"gi Farmoyishi, 2019-yil 5-yanvardagi PF-5611-son "O'zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni, 2019-yil 30-avgustdagi PQ-4433-son

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi // Xalq so'zi. 2018-yil, 29-dekabr.

“Yoshlarni ilm-fan sohasiga jalb etish va ularning tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘grisida”gi Qarori hamda sohaga oid boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni bajarishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Tadqiqot respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning I. “Demokratik va huquqiy jamiyat, ma‘naviy-ma‘rifiy, madaniy rivojlanish, innovatsion iqtisodiyotning shakllanishi” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Mavzuga oid tadqiqotlarning natijalari, bilimlarning rivojlanish darajasi va tarixshunoslik masalalari alohida davrlarga ajratilib, dissertatsiyaning birinchi bobida yoritilgan. Muammoning o‘rganilganlik darajasining o‘ziga xos jihatlari shundaki, Xorazm vohasi tarixi va madaniyatini o‘rganishda boshdan turli davr yozma manbalari hamda Xiva xonligiga kelgan elchilar, diplomatik missiyalarning a‘zolari va sayyohlarning asarlarida keltirilgan ma‘lumotlar muhim ahamiyat kasb etgan. XIX asrning 70-yillaridan yevropalik sharqshunoslar yozma manbalarga tayanganlari holda Xorazmning tarixiy o‘tmishini ilmiy nuqtai nazardan yoritishga harakat qilishgan.

Xivaning Rossiya imperiyasiga qaramlik davrida rus sharqshunoslari va o‘lkashunoslarida bevosita Xorazm vohasi hududida tadqiqotlarni olib borish, tarixiy, arxeologik va etnografik mazmundagi ma‘lumotlarni yig‘ish imkoni paydo bo‘ladi. Biroq bu davrda tarixiy tadqiqot usullari ishlab chiqilmagan edi.

Sovet hokimiyati yillarida tarixiy jarayonlarni sinfiy yondashuvga tayanib baholash, mafkuraviy siyosatning ustuvorligi, rasmiy-ma‘muriy doiralar tomonidan xalq urf-odatlari, an‘analari va marosimlari ma‘naviy mohiyatining inkor etilishi qatorida, tarixiy-madaniy merosning moddiy va nomoddiy qadriyatlarini o‘rganish borasida xolis ilmiy tadqiqotlar ham amalga oshirilib, fanga “Xorazm sivilizatsiyasi” degan tushuncha kiritildi. Mustaqillik yillarida O‘zbekiston madaniyati tarixini yoritish va yangi tadqiqotlarni amalga oshirish uchun keng imkoniyatlar paydo bo‘ldi. Bu davrda ilmiy ishlar xalqaro hamkorlik asosida ham olib borildi.

Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalarini bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya Urganch davlat universiteti hamda Lyublin texnologiya universiteti (Polsha) ilmiy-tadqiqot ishlari rejalariga muvofiq “3D Digital Silk Road” (“3D raqamli Ipak yo‘li”) nomli Xalqaro fundamental loyiha doirasida (2019–2022-y.) bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Xorazmda tarixiy-madaniy merosni tiklash va o‘rganish muammolarini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

muammoga oid tadqiqotlar natijalari va tarixshunoslik masalalarini yoritish;

O‘zbekiston tarixiy-madaniy merosini o‘rganish, saqlash va targ‘ib qilishning ilmiy-amaliy asoslarini ochib berish;

Xorazm vohasi madaniyatining O‘zbekiston va Markaziy Osiyo sivilizatsiyalari tizimida tutgan o‘rni va o‘ziga xos jihatlarini ochib berish;

Xorazm moddiy va nomoddiy madaniy merosini milliy va umuminsoniy qadriyatlar sifatida asrashning ahamiyatini ko‘rsatib berish;

hunarmandchilik sohasi va amaliy san‘atning tiklanish jarayonlarini tahlil qilish; jamiyatda tarixiy-madaniy merosga yangicha munosabatni shakllantirish muammolarini ko‘rib chiqish;

Xorazm vohasida tarixiy-madaniy yodgorliklarni o‘rganish va tiklashda xalqaro hamkorlik natijalarini tadqiq etish.

Tadqiqot obyekti sifatida Xorazmda tarixiy-madaniy merosni tiklash va o‘rganish muammolari belgilangan.

Tadqiqot predmetini Xorazm vohasi tarixiy-madaniy merosining o‘rganilganlik holati, O‘zbekistonda madaniy an‘analari va ma‘naviy qadriyatlarni baholashda sivilizatsiyaviy yondashuv, Xorazmda tarixiy-madaniy merosga yangicha munosabatni shakllantirish, madaniyat yodgorliklarini tiklash va saqlash masalalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada ilmiy axborotni tizimlashtirish, qiyosiy tahlil, xronologik usul, tarixiy ma‘lumotlarni umumlashtirish, xolislik tamoyili kabi ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Xorazm madaniyatining Markaziy Osiyo sivilizatsiyalari tizimida tutgan o‘rni va o‘ziga xos jihatlarini tadqiq etishda Quyi Amudaryo vohasi geografik sharoiti va aholisining madaniy an‘analari, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlari va ma‘naviyati darajasi hamda din, etnik jarayonlar, tashqi aloqalar va o‘zaro madaniy ta‘sir kabi omillarga tayangan holda sivilizatsiyaviy yondashuvni qo‘llash zarurligi asoslangan;

Xorazm vohasida tarixiy-madaniy obidalarni tashqi salbiy ta‘sirlardan muhofaza qilish, antropogen omil – inson faoliyati natijasida yuzaga kelgan texnogen tahdidlar ko‘lamini kamaytirish, madaniy meros obyektlari atrofida nazoratsiz olib borilayotgan qurilish va xo‘jalik ishlarini cheklash, saqlab qolishning xavf-xatari mavjud me‘moriy va arxeologik meros yodgorliklari ro‘yxatini tuzish hamda ularni ta‘mirlash-tiklashga oid ilmiy-amaliy loyihalarni ishlab chiqish kabi masalalar ochib berilgan;

jamiyatda tarixiy-madaniy merosga nisbatan yangicha munosabatni shakllantirish, yoshlar va umuman, jamoatchilik vakillari orasida madaniy merosning milliy va umuminsoniy qadriyatlari ahamiyatiga oid bilimlarga ega bo‘lish, ularni boyitish maqsadida umumiy o‘rta ta‘lim maktablari, oliy o‘quv yurtlari va madaniy-ma‘rifiy muassasalarining bu boradagi faoliyatini yanada takomillashtirish hamda ommaviy axborot vositalarida targ‘ibot ishlarini keng miqyosda olib borish lozimligi Xorazm misolida ijtimoiy tadqiqotlar asosida aniqlangan;

Yangi O‘zbekistonda tarixiy-madaniy merosni o‘rganish, qayta tiklash va targ‘ib qilish vazifalarini yechish, moddiy va nomoddiy madaniy meros yodgorliklarini muhofaza qilish va saqlash jarayonida milliy tizimni takomillashtirish va bu borada YUNESKO tamoyillarini yangi asoslarda rivojlantirish hamda madaniy-gumanitar

sohada xalqaro hamkorlikni maqsadli kengaytirish va turli mamlakatlar tajribasini o'rganish muammolari ochib berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

mavjud ilmiy ma'lumotlar tizimlashtirilib, yangi uslubiy va nazariy yondashuvlar asosida Xorazm tarixiy-madaniy merosini tiklash va o'rganish muammolari tahlil qilingan;

Xorazm vohasida tarixiy yodgorliklarning holati, moddiy madaniyat obyektlarini ta'mirlash va saqlash ishlarida ilg'or texnologiya va innovatsiya yutuqlaridan foydalanish zarurati, jamiyatda tarixiy-madaniy merosga yangicha munosabatni shakllantirish masalalari o'rganilgan;

dissertatsiya ishi natijalarini tarix fani sohasidagi tadqiqotlarda qo'llash bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi hozirgi davr tarix fanida aprobatsiyadan o'tgan usullar va e'tirof etilgan yondashuvlarning qo'llanilganligi, asl manbalar va ilmiy adabiyotlar ma'lumotlaridan foydalanilganligi va olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati Xorazm misolida moddiy va ma'naviy madaniyat tarixini o'rganishga, yaqin o'tmish va hozirgi davrda tarixiy-madaniy merosga bo'lgan munosabatni qiyoslash jarayonida yangicha yondashuvlar yaratish vazifalarini amalga oshirishga, tarixiy tadqiqot usullarini takomillashtirishga va tarix fanini yanada rivojlantirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, dissertatsiyadagi umumlashtirilgan ma'lumotlardan O'zbekiston moddiy va ma'naviy madaniyat tarixini o'rganish va yoritishda, jamiyatda tarixiy-madaniy merosga yangicha munosabatni shakllantirishda hamda o'quv adabiyotlarni yaratishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Xorazmda tarixiy-madaniy merosni tiklash va o'rganish muammolarini tadqiq etish bo'yicha ishlab chiqilgan taklif va xulosalar asosida:

Xorazm madaniyatining Markaziy Osiyo sivilizatsiyalari tizimida tutgan o'rni va o'ziga xos jihatlari tadqiq etishda Quyi Amudaryo vohasi geografik sharoiti va aholisining madaniy an'analari, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlari va ma'naviyati darajasi hamda din, etnik jarayonlar, tashqi aloqalar va o'zaro madaniy ta'sir kabi omillarga asoslangan holda sivilizatsiyaviy yondashuvni qo'llash zarurligi bo'yicha xulosalar O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tomonidan foydalanilgan (Madaniyat vazirligining 2023-yilning 21-dekabrda 02-12-16-8639-son ma'lumotnomasi). Natijada, dissertatsiya xulosa va takliflari "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar" dasturini ishlab chiqishga imkon bergan.

Xorazm vohasida tarixiy-madaniy obidalarni tashqi salbiy ta'sirlardan muhofaza qilish, antropogen omil – inson faoliyati natijasida yuzaga kelgan texnogen tahdidlar ko'lamini kamaytirish, madaniy meros obyektlari atrofida nazoratsiz olib borilayotgan qurilish va xo'jalik ishlarini cheklash, saqlab qolishning xavf-xatari mavjud me'moriy va arxeologik meros yodgorliklari ro'yxatini tuzish hamda ularni ta'mirlash-tiklashga oid ilmiy-amaliy loyihalarni ishlab chiqish kabi xulosalar O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tomonidan foydalanilgan (Madaniyat vazirligining 2023-yilning 21-dekabrda 02-12-16-8639-son ma'lumotnomasi). Natijada, dissertatsiya xulosa va takliflari “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar” dasturini ishlab chiqishda ilmiy manba bo'lib xizmat qilgan.

Jamiyatda tarixiy-madaniy merosga nisbatan yangicha munosabatni shakllantirish, yoshlar va umuman, jamoatchilik vakillari orasida madaniy merosning milliy va umuminsoniy qadriyatlarini ahamiyatiga oid bilimlarga ega bo'lish, ularni boyitish maqsadida umumiy o'rta ta'lim maktablari, oliy o'quv yurtlari va madaniy-ma'rifiy muassasalarining bu boradagi faoliyatini yanada takomillashtirish hamda ommaviy axborot vositalarida targ'ibot ishlarini keng miqyosda olib borish lozimligi Xorazm misolidagi ijtimoiy tadqiqotlar negizida olingan xulosalar O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi tomonidan foydalanilgan (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining 2023-yil 11-dekabrda 04-36-1856-son ma'lumotnomasi). Dissertatsiya xulosalari va tavsiyalaridan “O'zbekiston” teleradiokanali DM “Madaniy-ma'rifiy va badiiy eshittirishlar” muharririyatining “Ta'lim va taraqqiyot”, “Millat va ma'naviyat” dasturlari ssenariyalarini tayyorlashda foydalanilgan. Olingan natijalar teletomoshabinlarning madaniy merosning milliy va umuminsoniy qadriyatlarini ahamiyatiga oid bilimlarini boyitish maqsadida ommaviy axborot vositalarida targ'ibot ishlarini keng miqyosda olib borish lozimligi borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar haqida yaqindan tanishtirishga xizmat qilgan.

Yangi O'zbekistonda tarixiy-madaniy merosni o'rganish, qayta tiklash va targ'ib qilish vazifalarini yechish, moddiy va nomoddiy madaniy meros yodgorliklarini muhofaza qilish va saqlash jarayonida milliy tizimni takomillashtirish va bu borada YUNESKO tamoyillarini yangi asoslarda rivojlantirish hamda madaniy-gumanitar sohada xalqaro hamkorlikni maqsadli kengaytirish va turli mamlakatlar tajribasini o'rganish muammolari bilan bog'liq xulosalardan O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi tomonidan foydalanilgan (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining 2023-yil 11-dekabrda 04-36-1856-son ma'lumotnomasi). Dissertatsiya xulosalari va tavsiyalaridan “O'zbekiston” teleradiokanali DM “Madaniy-ma'rifiy va badiiy eshittirishlar” muharririyatining “Ta'lim va taraqqiyot”, “Millat va ma'naviyat” dasturlari ssenariyalarini tayyorlashda foydalanilgan. Olingan

natijalar teletomoshabinlarning Xorazm vohasi madaniy merosi haqidagi bilimlarini boyitishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 4 ta ilmiy-amaliy konferensiyada, jumladan, 2 ta xalqaro va 2 ta respublika miqyosidagi anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 14 ta ilmiy ish chop etilgan. Shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalarning asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarga 5 ta maqola, jumladan 4 tasi respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda e'lon qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Tadqiqot kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati, shartli qisqartmalar va ilovadan iborat bo'lib, ishning tadqiqot qismi 130 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning "**Kirish**" qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, muammoning o'rganilganlik darajasi yoritilgan, ishning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti, tadqiqotning usullari, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchlilik, ilmiy va amaliy ahamiyati, ularning amaliyotga joriy qilinishi va aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar, dissertatsiya tuzilishi va hajmi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Xorazm vohasi tarixiy-madaniy merosining o'rganilish tarixi**" deb nomlangan. Uning "XX asr 90-yillariga qadar masalaning o'rganilishi va tarixiy-madaniy merosga munosabat" nomli birinchi paragrafida mavzuga oid bilimlarning rivojlanish jihatlari ochib berilgan.

XIX asrning 70-yillarida Yevropalik sharqshunoslar Markaziy Osiyo tarixiga oid ilk yozma manbalarga asoslanib, qadimgi Xorazm tarixi va madaniyatini ilmiy nuqtai nazardan yoritish va talqin qilish ishlarini boshlab berishgan. Bu o'rinda E.Zaxay, V.Geyger, V.Tomashek asarlarini tilga olish kerak².

1879-yilda nemis sharqshunos olimi E. Zaxay Abu Rayhon al-Beruniyning "Al-osor al-boqiy an al-qurun al-holiya" ("Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar", Yevropada "Xronologiya" deb atalgan) asarining arabcha nusxasini ingliz tiliga tarjima qilib, nashrdan chiqardi³. Shu tariqa, yevropalik olimlar birinchi marta buyuk xorazmlik allomaning kitobida yoritilgan qadimiy Xorazm aholisining islomgacha bo'lgan davrlardagi urf-odatlar, e'tiqodlari, taqvimiy bayramlari va marosimlari to'g'risidagi ma'lumotlar bilan tanishib chiqishadi.

² Sachau E. Zur Geschichite und Chronologie von Khwarizm // Sitzungberichte der historischen classe der Kaiserlichen Academie der Wissenschaften. – Wien, 1873. – №4, 6; Geiger W. Ostiranische Kultur in Altertum. – Erlangen, 1882. – S. 29-30.; Tomaschek W. Central asiatische Studien. – Wien, 1887. – S. 172-174.

³ Абдуллаев И. Беруний ва унинг "Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар" асари // Абу Райхон Беруний. Танланган асарлар. Т. I. – Тошкент: Фан, 1968. – Б. 13.

O'rta asrlar Xorazm tarixi va madaniyatini o'rganishda arab-fors tillarida yaratilgan manbalar, yevropalik sayyoh, savdogar va missionerlarning ma'lumotlari, Amir Temur va temuriylar davri mualliflarining asarlari muhim ahamiyatga ega bo'lib, ular Xorazmning boy tarixiy-madaniy o'tmishi haqidagi bilimlarning rivojlanishiga katta hissa qo'shgan va tadqiqotchilar tomonidan yuqori baholangan⁴. Shuningdek, Xiva xonligi tarixnavislik maktabi vakillarining asarlari alohida e'tiborga loyiq⁵. XVIII asrdan boshlab, Rossiyadan Xivaga tashrif buyurgan elchilar, diplomatlar va sayyohlarning axborotlarida xonlik aholisining turmush tarzi, xo'jaligi va hunarmandchiligi haqida etnografik mazmundagi ma'lumotlar keltirilgan⁶. Shunga o'xshash axborotlar boshqa manbalarda ham o'z aksini topgan⁷.

1873- yilda Rossiya imperiyasi qo'shinlari Xivani bosib oladi, xonlik saroyidagi mavjud qo'lyozmalar va qurol-yarog'lar Peterburgga yuboriladi⁸. Rossiyaning turli soha mutaxassislari Xiva xonligining hududi, shaharlari, aholisining madaniyati va tarixiy obidalarini bevosita o'rganish imkoniga ega bo'lishadi⁹. Sharqshunolar A.I.Kun va N.I.Veselovskiyning ishlarida Xorazm vohasi tarixi va madaniyatiga oid turli ma'lumotlar keltirilgan¹⁰.

Shu bilan birga, mustamlaka ma'muriyati tomonidan tarixiy-madaniy meros namunalariga nisbatan talon-tarojlik siyosati amalga oshirilib, ular Turkistonning turli viloyatlaridan tashqariga olib chiqilgan¹¹.

XX asrning 20–30-yillarida ijtimoiy va madaniy hayotni sovetlashtirish, “Yangi madaniyat”ni targ'ib qilish, dinga qarshi kurashish natijasida diniy muassasa va tashkilotlar, masjid va madrasalarning faoliyati to'xtatildi. Shu qatorda, tarixiy va tabiiy yodgorliklarni muhofaza qilish maqsadida muzey ishlari, ko'hna yodgorliklar, san'at va tabiatni muhofaza qilish O'rta Osiyo qo'mitasi tashkil etildi¹².

⁴ Лунин Б.В., Муниров К., Ртвеладзе Э.В. Хива тарихи тадқиқотчилар назарида // Хива – минг гумбаз шаҳри. – Тошкент: Шарқ, 1997. – Б. 123-124.

⁵ Абулғозий. Шажарайи турк / Масъул муҳаррир Б.А.Ахмедов. – Тошкент, 1992. – 126 б.; Муниров К. Мунир, Огаҳий ва Баёнийнинг тарихий асарлари. – Тошкент, 1960. – 53 б.; Мунир ва Огаҳий. Фирдавс ул-иқбол / Араб ёзувидан таъдил ва изоҳлар. Ш.Воҳидов, И.Бекчанов, Н.Полвонов. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2010. – 520 б.; Баёний Муҳаммад Юсуф. Шажарайи хоразмшоҳий. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1994. – 102 б.

⁶ Гуломов Х.Г. Дипломатические отношения государств Средней Азии с Россией в XVIII – первой половине XIX века. – Ташкент: Фан, 2005. – 333 с.; Аллаева Н. Хива хонлигининг дипломатияси ва савдо алоқалари (XVI-XIX асрлар). – Тошкент: Akademnashr, 2019. – 495 б.

⁷ Вамбери А. Путешествие по Средней Азии / Перевод с английского. – СПб., 1865. – 221 с.; Ризоқулихон Ҳидоят. Сафоратномаи Хоразм / Форс тилидан таржимон И.Бекжонов. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2009. – Б. 153-155.

⁸ Баёний Муҳаммад Юсуф. Шажарайи Хоразмшоҳий... – Б. 53.

⁹ Иванин М.И. Хива. – СПб., 1873. – 64 с.; Бутаков А.В. Несколько страниц из истории Хивы // Материалы по статистике Туркестанского края. Вып. 2. – СПб., 1873. – С. 408-411.; Кун А.Л. Заметки о Хивинском ханстве // Туркестанские ведомости. – Ташкент, 1873. – №40; Венюков М.И. Население Хивы // Известия русского географического общества. Т. IX. Вып. 10. – СПб., 1873. – С. 379-389.

¹⁰ Кун А.Л. Культура оазиса низовьев Аму-Дарьи // Материалы для статистики Туркестанского края. Вып. 4. – СПб., 1876. – С. 214-257.; Веселовский Н.И. Очерк историко-географических сведений о Хивинском ханстве от древнейших времен до настоящего. – СПб., 1877. – 364 с.

¹¹ Массон М.Е. Краткий очерк истории изучения Средней Азии // Труды САГУ. Вып. LXXXI. – Ташкент, 1956. – С. 5-40.

¹² Нечкин Д.И. Задачи и ближайшие цели комитета по делам музеев, охраны памятников старины, искусства и природы в Средней Азии // Известия Средкомстариса. – Ташкент, 1926. Вып. 1. – С. 4-5.

1928–1929-yillarda A.Y.Yakubovskiy tomonidan Ko‘hna Urganchda me‘moriy-arxeologik meros yodgorliklari o‘rganilgan¹³. Ya.G‘.G‘ulomov boshchiligida 1936–1937-yillarda arxeologik tekshiruvlar va Xiva Ichan qal‘asidagi ayrim me‘moriy obidalarda dastlabki ta‘mirlash-tiklash ishlari amalga oshirildi¹⁴. 1937–1940-yillarda S.P.Tolstov rahbarligidagi Xorazm arxeologik ekspeditsiyasining izlanishlari muhim ahamiyat kasb etdi¹⁵.

Tadqiqotda XX asrning 90-yillariga qadar Xorazm vohasi tarixiy-madaniy merosi obyektlarining turli ilmiy soha yo‘nalishlari (arxeologiya, etnologiya, manbashunoslik, arxitektura tarixi va san‘atshunoslik) bo‘yicha o‘rganilishi alohida bosqichlarga ajratilib, ochib berilgan.

Qadimgi Xorazm sivilizatsiyasiga oid me‘morchilik, tasviriy san‘at, yozuv va diniy e‘tiqodlar tarixi masalalari S.P.Tolstov, M.G.Vorobyeva, Yu.A.Rapoport, M.S.Lapirov-Skoblo, V.N.Yagodin, V.A.Livshits va M.M.Mambetullayevlarning ishlarida yoritilgan¹⁶.

O‘rta asrlar Xorazm shaharlarining moddiy madaniyatini o‘rganish bo‘yicha N.N.Vakturskaya, O.A.Vishnevskaya va M.Sh.Kdirniyazovlarning tadqiqotlarini qayd etib o‘tish kerak¹⁷. Arxitektura tarixi G.A.Pugachenkova, I.I.Notkin, A.A.Asanov, L.Mankovskaya va K.Yusupovlar tomonidan ko‘rib chiqilgan¹⁸, shuningdek,

¹³ Якубовский А.Ю. Развалины Ургенча // Известия Гос. Академии истории материальной культуры. Т. VI. Вып. 2. – Л., 1930. – С. 5-68.

¹⁴ G‘ulomov Ya. O‘tmish izlari (Arxeologik tekshirishlar) // Guliston, 1937. – №4. – В. 6-7.; Гулямов Я.Г. Памятники города Хивы // Труды Института языка, литературы и истории Узбекстанского филиала АН СССР. Серия 1. История, археология. Вып. 3. – Ташкент, 1941. – 42 с.

¹⁵ Толстов С.П. Древний Хорезм. Опыт историко-археологического исследования. – М.: МГУ, 1948. – 352 с.

¹⁶ Толстов С.П. По древним дельтам Окса и Яксарта. – М.: Изд. восточной литературы, 1962. – С. 209-222.; Воробьева М.Г. Керамика Хорезма античного периода // Тр. ХАЭЭ. Т. IV. – М. 1959. – С. 63-221.; Рапопорт Ю.А., Лапиров-Скобло М.С. Башнеобразные хорезмийские оссуарии (К вопросу о домосулманских мавзолеях Средней Азии) // История, археология и этнография Средней Азии. – М.: Наука, 1968. – С. 147-156.; Рапопорт Ю.А. Из истории религии древнего Хорезма // Тр. ХАЭЭ. Т. VI. – М.: Наука, 1971. – 126 с.; Ягодин В.Н. Новые материалы по истории религии Хорезма // Советская этнография. – М., 1963. – №4. – С. 95-107.; Лившиц В.А. Документы. Топрак-кала. Дворец // Тр. ХАЭЭ, Т. XIV. – М., 1984. – С. 256-269.; o‘sha muallif. Хорезмийские надписи на оссуариях с некрополя Миздахкана // Ягодин В.Н., Ходжайов Т. Некрополь древнего Миздахкана. – Ташкент: Фан, 1970. – С. 247-252.; Мамбетуллаев М. Городище Большая Айбуйир-кала // Археология Приаралья. Вып. IV. – Ташкент, 1990. – С. 100-101.; o‘sha muallif. Хумбуз-тепе – керамический центр Южного Хорезма // Археология Приаралья. Вып. II. – Ташкент, 1984. – С. 36-37.

¹⁷ Вактурская Н.Н. Раскопки городища Ургенча в 1952 г. // Тр. ХАЭЭ. Т. II. – М., 1952. – С. 467-497.; o‘sha muallif. О средневековых городах Хорезма // Материалы Хорезмской экспедиции. Вып. 7. – М., 1963. – С. 52-56.; Вактурская Н.Н., Вишневецкая О.А. Памятники Хорезма эпохи Великих Хорезмшахов (XII-XIII вв.) // Материалы Хорезмской экспедиции. Вып. 1. – М., 1959. – С. 150-167.; Вактурская Н.Н. Медные сосуды из средневекового замка Кават-кала // МХЭ. Вып. IV. – М., 1960. – С. 193-197; Кдырниязов М.Ш. Камнерезное ремесло в средневековом Хорезме // Археология Приаралья. Вып. III. – Ташкент: Фан, 1986. – С. 109-132.

¹⁸ Пугаченкова Г.А. Материалы к истории хорезмского зодчества // Материалы Хорезмской археолого-этнографической экспедиции. Вып. 7. – М., 1963. – С.118-137.; Ноткин И.И. Малоизвестные памятники хорезмского зодчества // Искусство зодчих Узбекистана. – Ташкент, 1962. – С. 143-177.; Асанов А.А. Памятники архитектуры средневекового Хорезма. Проблемы прочности и обеспечения дальнейшей сохранности. – Ташкент, 1971. – 106 с.; Маньковская Л. Хива. Заповедник хорезмского зодчества. – Ташкент, 1980. – 264 с.; Юсупов К. Уникальный памятник архитектуры средневекового Миздахкана // Археология Приаралья. Вып. IV. – Ташкент: Фан, 1990. – С. 166-177.

me'moriy yodgorliklar bilan bog'liq yog'och o'yakorligi V.L.Voronina va N.A. Avedovalarning ishlarida yoritilgan¹⁹.

Xorazm ekspeditsiyasi tarkibidagi etnograflarning tadqiqotlarida madaniy an'analar, oilaviy-maishiy odatlar, xo'jalik shakllari, xalq arxitekturasi va amaliy san'ati, Xorazm vohasida qadimdan izlari saqlanib qolgan e'tiqodlar, urf-odat va marosimlarning ko'rinishlari haqida ma'lumotlar mavjud. Bular G.P.Snesaryev, M.V.Sazonova, N.P.Lobacheva va T.A.Jdanko ishlarida o'z aksini topgan²⁰.

Sovet davrida tadqiqotlar olib borgan etnograflar, o'sha davr madaniyati sohasida amalga oshirilgan "Yangicha sotsialistik" siyosat va rasmiy mafkura talablarini hisobga olishga majbur bo'lishgan. Shunga qaramay, ko'rib chiqilgan davrda haqiqiy ilmiy tadqiqotlar ham amalga oshirilib, Xorazm tarixiy-madaniy merosini o'rganishga katta hissa qo'shilgan. Buni turli yo'nalishdagi ilmiy masalalarni tahlil qilishda ko'rish mumkin²¹. Shuningdek, o'rta asrlarda Xorazmning Sharqda ilm-fan markaziga aylanishi, Xorazmdan chiqqan va jahon madaniyatiga ulkan hissa qo'shgan mashhur allomalarning faoliyati haqidagi ma'lumotlar S.P.Tolstov, A.G.Bulgakov, A.A.Axmedov, N.M.Norqulov ishlarida yoritilgan²².

Birinchi bobning "XX asrning 90-yillari va XXI asr boshlarida tadqiqotlarning asosiy natijalari" sarlavhali ikkinchi bandida mavzuga oid mustaqillik davri tadqiqotlarining mazmun-mohiyati tahlil qilingan.

Mustaqillik yillarida Xorazm vohasining tarixiy-madaniy merosini milliy va umuminsoniy qadriyatlar sifatida o'rganish, qayta tiklash va targ'ib qilish uchun keng imkoniyatlar paydo bo'ldi. Yangi sharoitda bu boradagi tadqiqotlarni amalga oshirish O'zbekiston Fanlar akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limi qoshida Tarix, arxeologiya

¹⁹ Воронина В.Л. Колонны соборной мечети Хивы // Архитектурное наследство. Т. 11. – М., 1958. – С. 145-180.; Аведова Н.А. Живые традиции резьбы по дереву в Хиве // Искусство зодчих Узбекистана. Вып. IV. – Ташкент, 1969. – С. 192-206.

²⁰ Снесарев Г.П. Реликты домусульманских верований и обрядов у узбеков Хорезма. – М.: Наука, 1969. – С. 336.; o'sha muallif. Материалы о первобытно - общинных пережитках в обычаях и обрядах узбеков Хорезма // Материалы Хорезмской экспедиции. Вып. 4. – М., 1960. – С. 134-145.; o'sha muallif. Обряд жертвоприношения воде у узбеков Хорезма, генетически связанный с культом плодородия // Материалы Хорезмской экспедиции. Вып. 4. – М., 1960. – С. 198-203.; Сазонова М.В. К этнографии узбеков Южного Хорезма // Тр. ХАЭЭ. Т. 1. – М., 1952. – С. 247-318.; Лобачева Н.П. Об одном обычае свадебного комплекса хорезмских узбеков // Этнография и археология Средней Азии. – М.: Наука, 1970. – С. 163-167.; Жданко Т.А. Этнографические исследования Хорезмской экспедиции (народы, проблемы, труды) // Культура и искусство древнего Хорезма. – М.: Наука, 1981. – С. 21-40.

²¹ Джаббаров И.М. Новые материалы к истории гончарного ремесла Хорезма // Керамика Хорезма. – М., 1959. – С. 379-396.; o'sha muallif. Ремесло узбеков Южного Хорезма в конце XIX – начале XX в. // Среднеазиатский этнографический сборник. Вып. 3. – Л., 1971. – С. 72-146.; Садоков Р.Л. Музыкальная культура Древнего Хорезма. – М.: Наука, 1970; Абидов Т.Т. Театр масхарабозов Хорезма. – Ташкент, 1967. – 24 с.; Рахмонов К. Хива-очаг культуры и науки Хорезма. – Ташкент, 1972. – 152 с.; Киличев Т. Хоразм халқ театри. – Тошкент, 1988. – 71 б.; Исмаилова Э.М. О некоторых приемах оформления хивинских рукописей XIX века // Общественные науки в Узбекистане, 1974. – №3. – С. 49-53.; Муниров К. Мунир, Огахий ва Баёний. – Тошкент, 1960. – 53 б. Сычева Н.С. Традиции и новаторства в современной керамике Хорезма // Культура и искусство древнего Хорезма. – М.: Наука, 1981. – С. 262-270.; Қдырнязов М.Ш. Ремесло Хорезма в XIII-XIV вв // Археологические исследования в Каракалпакии. – Ташкент: Фан, 1981. – С. 123-139.

²² Толстов С.П. Беруний ва унинг замони // Беруний-ўрта асрнинг буюк олими. – Тошкент: ЎзССР ФА. – 1950. – Б. 3-25.; o'sha muallif. Беруни и проблема древней и средневековой истории Хорезма // Материалы конференции востоковедов. – Ташкент, 1958. – С. 125-130.; Булгаков П.Г. Жизнь и труды Беруни. – Ташкент: Фан, 1972. – 426 с.; Норкулов Н.М. Беруний ва Хоразм. – Тошкент: Фан, 1973. – 48 б. Ахмедов А.А., Булгаков П.Г., Розенфельд Б.А. Мухаммад ал-Хорезми. – М.: Наука, 1983. – 240 с.

va etnologiya instituti, Xorazm Ma'mun akademiyasi, Qoraqalpoq davlat universiteti va Urganch davlat universiteti Tarix kafedrasida ilmiy jamoalarining muhim vazifasiga aylandi.

Xiva shahrining 2500 yilligiga bag'ishlangan monografiyada arxitektura tarixi, tasviriy va amaliy san'at, qo'lyozma kitobot san'ati, adabiy meros, musiqa, xalq tomoshalari va bayramlari kabi mavzular ochib berildi²³. Shu bilan birga, vohadagi amaliy san'at sohalarida badiiy maktablar ahvoli, ularning rivojlantirishda hamda ustoz-shogird yo'nalishida mavjud muammolarni yechish zarurligi aniqlandi.

Arxeologik merosiga mansub Aqchaxon qal'ada xorijiy olimlar bilan hamkorlikda tadqiqotlar boshlanib, Xorazm sivilizatsiyasi badiiy madaniyatiga oid yangi ma'lumotlar qo'lga kiritildi²⁴.

M.Mambetullayev, V.N.Yagodin va D.X.Muradovlarning maqolalari antik davr tasviriy san'at yodgorliklariga bag'ishlangan bo'lib, ularning e'tiqod funksiyasi va dunyoqarash xususiyatlari ochib berilgan²⁵. G'.X.Xodjaniyozov va Q.Sobirovning monografiyalarida qadimgi Xorazm mudofaa inshootlari tarixi va vohada me'morchilik maktabining shakllanishi masalalari yoritilgan²⁶.

Xorazm madaniyatini o'rganishda M.Turebekov, J.X.Xakimniyozov, R.Abdirimov, S.R.Baratov, Sh.Matrasulov va M.Madaminovlarning tadqiqotlari alohida ahamiyat kasb etadi²⁷.

M.Sh.Kdirniyozovning monografiyasida XII-XV asrlarga oid hunarmandchilik turlari, madaniy-iqtisodiy aloqalar, madaniyat va din kabi dolzarb mavzular qamrab olingan²⁸.

Hammualiflikda yozilgan monografiyada Xorazm sivilizatsiyasining shakllanishi, qadimgi va o'rta asrlar davri madaniyati, san'ati, binokorlik va arxitektura tarixi masalalari talqin qilindi²⁹.

²³ Хива минг гумбаз шаҳри. / Илмий муҳаррирлар: Э.Ртвеладзе, Н.Хабибуллаев. – Тошкент: Шарқ, 1997. – 160 б.

²⁴ Helms S.W., Yagodin V.N. Excavations at Kazakliyatkan in Tashkirman Oasis of Ancient Chorasmia: A preliminary Report // Iran. Vol. 35. 1997. – P. 43-65.; Ягодин В., Беттс А. Хоразм номаълум ҳукмдорларининг суратлари // Фан ва турмуш, 2008. – № 3,4,5. – Б. 110-117.

²⁵ Мамбетуллаев М. Хоразмнинг сопол ҳайкалчалари // Санъат, 2000. – №3. – Б. 4-6.; о'sha muallif. Статуэтка богини Умай из Кердера // История материальной культуры Узбекистана. Вып. 31. – Самарканд, 2000. – С. 207-211.; Ягодин В.Н. Қорақалпоғистон санъатининг қадимги ёдгорликлари // Санъат, 2000. – №2. – Б. 4-9.; Мурадова Д.Х. Қадимий Хоразм давлати маънавий ҳаётида аёл маъбуда ва муқаддас жонзотлар тасвири // Ўзбекистон тарихи ва маданияти. – Тошкент: Тафаккур, 2011. – Б. 281-284.

²⁶ Ходжаниязов Ф. Қадимги Хоразм мудофаа иншоотлари. – Тошкент: O'zbekiston, 2007. – 216 б.; Собиров Қ. Хоразмнинг қишлоқ ва шаҳарлари мудофаа иншоотлари. – Тошкент: Фан, 2009. – 195 б.

²⁷ Туребеков М. Раскопки жилого массива гончаров средневекового Миздахкана // Археология Приаралья. Вып. VI. – Нукус, 2003. – С. 67-79.; Хакимниязов Ж.Х. История изучения общественно-культурных сооружений Южного Приаралья (X-XV вв.) // Археология Приаралья. Вып. VI. – Нукус, 2003. – С. 86-102.; Собиров Қ. Хоразм воҳасида оташгоҳларнинг вужудга келиши // "Авесто"-Ўрта Осиё халқлари маданияти тарихида. – Нукус – Хива, 2001. – Б. 80-81.; Баратов С., Матрасулов Ш., Мадаминов М. Археологические работы в Южном Хорезме // Археологические исследования в Узбекистане 2002 г. Вып. 3. – Ташкент, 2003. – С. 38-45.

²⁸ Қдырниязов М.Ш. Культура Хорезма в XIII-XIV вв. – Самарканд: Zarafshon, 2015. – 320 с.

²⁹ Қдырниязов М.Ш., Ягодин В.Н., Мамбетуллаев М.М., Сағдуллаев А.С., Қдырниязов О.Ш. История цивилизации Хорезма. – Нукус: Qoraqalpog'iston, 2017. – 284 с.

I.M.Jabborovning ishlarida voha aholisining turmush tarzi, madaniyati va san'atiga doir muhim mavzular ochib berilgan³⁰. Xiva xonligidagi hunarmandchilik turlari va ularning o'ziga xos jihatlari, ustoz-shogird an'analari D.Bobojonov, M.Abdullayev, S.Turayeva va B.K.Turganovlarning tadqiqotlarida ko'rib chiqilgan³¹.

D.Sh.Qurbanovning monografiyasida Xorazm vohasining qadimgi va ilk o'rta asrlar davri ma'naviy madaniyatiga tarixiy an'analari va yangiliklarning o'zaro ta'siri, amaliy bilimlar dinamikasi va yozuvning ahamiyati kabi muammolar ochib berilgan³².

Xorazmda davlatchilikning shakllanishida madaniyat va san'atning roli, shu jarayondagi yozuv madaniyatining o'rni kabi masalalarni A.A.Xakimov, M.Is'hoqovlar ilgari surishgan³³.

Xorazmlik buyuk allomalarning ilmiy izlanishlari, ularning jahon ilm-fan va ma'naviy madaniyat taraqqiyotiga qo'shgan hissalarini T.K.Masharipova, A.A.Axmedov, O.Bo'riyev, M.Xasaniy va B.R.Karimovlarning ishlarida tahlil etilgan³⁴.

Shuningdek, folklor va tarixiy rivoyatlar, Xiva xonligidagi ta'lim tizimi hamda tarixnavislik kabi mavzular ham ko'rib chiqilgan³⁵.

³⁰ Жабборов И. Ўзбеклар: турмуш тарзи ва маданияти (этнотарихий лавҳалар). – Тошкент: Ўқитувчи, 2003. – Б. 96-140.; o'sha muallif. Юксак маданият ва ноёб маънавий маскани. – Тошкент: O'zbekiston, 2012. – Б. 10-274.; o'sha muallif. Древний Хорезм – страна высокой культуры (этно-исторические очерки). – М.: Институт этнологии и антропологии. РАН, 2014. – 384 с.

³¹ Бобожонов А., Абдуллаев М. Хоразм амалий санъат усталари. – Хива: Хоразм Маъмун академияси, 2010. – 99 б.; Абдуллаев М.С. Хоразм амалий безак санъатига этномаданий муносабатларнинг таъсири ҳақида // Ўзбекистон ҳудудида кечган этномаданий муносабатлар ва унинг давлатчилик шаклланишидаги ўрни. – Хива, 2012. – Б. 261-266.; Тураева С. XVIII асрнинг иккинчи ярми – XIX асрнинг 70-йилларида Хива хонлиги хунармандчилиги тарихи. – Тошкент: Янги нашр, 2018. – 216 б.; Turganov B.Q. Xorazmning metallsozlik hunarmandchiligi (Qadimgi davrdan XX asr boshigacha). – Toshkent: "Tafakkur avlodi", 2023. – 308 b.

³² Курбанова Д.Ш. Хоразм воҳасининг қадимги ва ilk ўрта асрлар маънавий маданияти. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2015. – 212 б.

³³ Хакимов А.А. Роль культуры и искусства в формировании государственности Хорезма // Қадимги Хоразмнинг жаҳон цивилизациясида тутган ўрни. – Хива, 2016. – Б. 63-65.; o'sha muallif. Искусство и культура Хорезма в контексте мировой цивилизации // Хоразм тарихи замонавий тадқиқотларда. – Тошкент – Урганч. – Б. 29-45.; Исҳоқов М. Тарихни тилга киритган ёзув // Фан ва турмуш, 2006. – №1-3. – Б. 33-35.; o'sha muallif. Қадимги Хоразм ёзуви ва ёзув маданияти // Хоразм тарихи замонавий тадқиқотларда. – Тошкент – Урганч, 2018. – Б. 20-25.

³⁴ Машарипова Г.К. Хоразмлик алломаларнинг математика ва астрономия соҳасидаги илмий изланишлари. – Тошкент: Фан, 2004; Аҳмедов А.А. Хоразм Маъмун академиясида аниқ фанларнинг ўрганилиши ва унинг жаҳон фанидаги ўрни // Хоразм тарихи замонавий тадқиқотларда. – Тошкент – Урганч, 2018. – Б. 293-296.; Бўриев О. Хоразм Маъмун академияси илмий меросининг кейинги асрлар илм – фани ривожига таъсири // Хоразм тарихи замонавий тадқиқотларда. – Тошкент – Урганч, 2018. – Б. 297-302.; Хасаний М. Шайх Камолиддин Хусайн ал-Хоразмий – хоразмлик улуғ аллома // Хоразм тарихи замонавий тадқиқотларда. – Тошкент – Урганч, 2018. – Б. 332-338.; Каримов Б.Р. Абу Райҳон Берунийнинг жаҳон цивилизацияси ривожига қўшган хиссаси // Абу Райҳон Берунийнинг мероси ва ҳозирги замон. – Тошкент, 2021. – Б. 33-48.

³⁵ Абдуллаев Ҳ. “Авесто” ва Хоразм воҳаси фольклори // O'zbekiston tarixi, 2001. – №3. – Б.38-41.; Бекимбетов А.М. Исторические предания в каракалпакском фольклоре // Устойчивое развитие Приаралья. – Нукус, 2011. – С. 99-101.; Худайберганов С., Матниёзов А. Авесто ва мақомлар // Moziydan sado, 2013. – №1 (57). – Б. 4-5.; Ашуров Ш.Ш. Жанубий Оролбўйи халқларининг оғзаки ижоди: кеча ва бугун // Жанубий Оролбўйи археологияси, этнологияси, тарихи ва тарихшуносликнинг долзарб масалалари. – Нукус, 2016. – Б. 40-42.; Рўзимбоев С., Эшчанова Г. Беруний ва фольклор. – Урганч, 2003. – 30 б.; Қаямов М.У. XIX аср охири – XX аср бошларида Хива хонлигида таълим тизими // Хоразм тарихи замонавий тадқиқотларда. – Тошкент – Урганч, 2018. – Б.128-132.; Муниров Қ. Хоразмда тарихнавислик (XVII-XX аср бошларида). – Тошкент: Ғофур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 2020. – 192 б.

Bugungi kunda me'moriy yodgorliklarning texnik holatlari, tarixiy obyektlarni saqlash, qayta tiklash va ulardan foydalanish masalalari G.Durdiyeva, N.Kaliyev, A.Seyitniyazova, B.Sadullayev va M.Abdullayevlar tomonidan tahlil qilingan³⁶ hamda Lyublin texnologiya universiteti (Polsha) mutaxassislarining Xiva arxitektura obidalarida 3D skanerlash va modellashtirish ishlari natijalari haqida ma'lumotlar yoritilgan³⁷.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“O‘zbekistonda tarixiy-madaniy merosga sivilizatsiyaviy yondashuv”** deb nomlangan. Uning **“O‘zbekiston tarixi-madaniy merosini o‘rganish, saqlash va targ‘ib qilishning ilmiy-amaliy asoslari”** sarlavhali birinchi bandida moddiy va nomoddiy meros tarkibini tashkil qilgan obyektlarning tipologik tasnifi, ularni tadqiq etishda sivilizatsiyaviy yondashuv va o‘rganishning ilmiy-amaliy asoslari kabi masalalar yoritilgan.

Tadqiqotda tarixiy-madaniy merosning sivilizatsiyaviy yondashuv orqali o‘rganish va baholashda, uning shakllanishi va taraqqiy topishida geografik, milliy va diniy omillarni hisobga olish muhimligi³⁸ qayd etilgan.

O‘zbekistonda mashhur me'moriy-arxeologik meros obyektlari joylashgan bo‘lib, ular ichidagi arxeologik yodgorliklarning umumiy soni, ayrim ma'lumotlarga ko‘ra, 8,5 mingga yaqindir³⁹. Bugungi kunda ularning ko‘pchiligi jahondagi yetakchi ilmiy markazlar bilan xalqaro ilmiy loyihalar asosida o‘rganib kelinmoqda⁴⁰. Shu tariqa, O‘zbekiston me'moriy-arxeologik merosi haqidagi elektron bank ma'lumotlarini yanada kengaytirish katta ahamiyatga ega⁴¹.

Bugungi kunda O‘zbekistonning tarixiy-madaniy meros obidalarini o‘rganish va qayta tiklash jarayonida fanlararo usullardan, gumanitar va tabiiy fanlar yutuqlardan, 3D skanerlash va zamonaviy axborot texnologiyalaridan keng foydalanilmoqda. Tarixiy-madaniy merosning muhim qismi bo‘lgan moddiy madaniyat yodgorliklariga yangicha munosabat qaror topdi. Bu qonuniy asoslari takomillashtirib borishida ham ko‘zga tashlanmoqda⁴².

³⁶ Дурдыева Г. Хива тарихий-меъморий ёдгорликларининг техник ҳолатлари. – Хива: Хоразм Маъмур академияси нашриёти, 2017. – Б. 263-264.; Дурдыева Г., Калиев Н., Сейитниязова А. Жанубий Оролбўйи меъморий ёдгорликларини сақлаш ва фойдаланиш самарадорлигини ошириш // Маданий мерос объектларини асраш, қайта тиклаш, муҳофаза қилиш ва улардан фойдаланишнинг долзарб масалалари. – Урганч, 2019. – Б.15-25.; Садуллаев Б., Абдуллаев М. Хумбузтепа археологик ёдгорлигини сайёҳлик марказига айлантириш // Халқаро туризм индустрияси замонавий жиҳатлари ва Ўзбекистонда туризм ривожланишининг ўзига хос хусусиятлари. – Тошкент, 2014. – Б. 141-143.

³⁷ Milosh M., Montusiewicz J., Kesik J. 3D information technology in the Protection and Popularization of the Cultural Heritage of the Silk Road. – Lublin, 2022. – P. 68-78.

³⁸ Ртвеладзе Э.В., Саидов А.Х., Абдуллаев Е.В. Қадимги Ўзбекистон цивилизацияси: давлатчилик ва ҳуқуқ тарихидан лавҳалар. – Тошкент: Адолат, 2001. – Б. 17.

³⁹ Бердимуродов А., Раимкулов А.Т. Археологик мерос: уни асраб-авайлаш барчамизнинг фуқоролик бурчимиздир // Ўзбекистон тарихи ва маданияти. – Тошкент: Tafakkur, 2011. – Б. 233.

⁴⁰ Бердимуродов А.Э. Мустақиллик йилларида ўзбек археологиясининг тараққиёти // Ўзбекистон археологияси мустақиллик йилларида. – Самарқанд, 2016. – Б. 3-4.

⁴¹ Сагдуллаев А. Ўзбекистон археологияси: изланиш ва кашфиётлар // Moziydan sado. 2020. – №4/88. – Б. 19.

⁴² Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019-йил 19-декабрдаги ПҚ-4068-сонли “Моддий-маданий мерос объектларини муҳофаза қилиш соҳасидаги фаолиятни тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Қарори; Вазирлар Маҳкамасининг 2019-йил 21-сентябрдаги 792-сонли “Археологик тадқиқотларни тубдан такомиллаштириш тўғрисида”ги Қарори.

Oxirgi besh yil mobaynida O‘zbekistonning tarixiy-madaniy merosini o‘rganish va targ‘ib qilish ishlari dolzarb zaruriyat sifatida davr talabiga aylandi. Mazkur ishlarni davlat va nodavlat tashkilotlari samarali amalga oshirmoqda⁴³.

Xalqimizning tarixiy-madaniy merosining xalqaro miqyosda tadqiq etish va keng targ‘ib qilishda O‘zbekistonning amaldagi yangi siyosati dunyoning nufuzli muzeylari va san‘at galereyalarida mamlakatimiz tarixi va madaniyatiga oid ko‘rgazmalar tashkillashtirilishi bilan bog‘liq holda ham faol olib borilmoqda⁴⁴.

Ikkinchi bobning “Xorazm vohasi madaniyatining O‘zbekiston va Markaziy Osiyo sivilizatsiyalari tizimida tutgan o‘rni” deb nomlangan ikkinchi paragrafida vohada madaniyat, sivilizatsiya asoslarining rivojlanish omillari, Xorazmning Markaziy Osiyo mintaqasida o‘ziga xos xususiyatlaridan iborat madaniy markazlardan biriga aylanib borishi jarayonlari tahlil qilingan.

Xorazm vohasi – Janubiy Orolbo‘yi hududlarida yashagan qadimiy aholining hayot tartibi, turmush tarzi hamda xo‘jalik faoliyati tabiiy sharoit va geografik muhitning o‘ziga xos jihatlari bilan belgilangan. Xorazm orqali Markaziy Osiyo va Yevroosiyo o‘rtasida madaniy-iqtisodiy aloqalar amalga oshirilgan va mazkur omil turli davrlarda Xorazm madaniyatining taraqqiyotida katta ahamiyatga ega bo‘lgan⁴⁵.

Xorazm madaniyatining Markaziy Osiyo sivilizatsiyalari tizimida tutgan o‘rnini aniqlashda, tarixiy-madaniy belgilarni davriy jihatdan ajratib, xronologik usul va qiyosiy tahlildan foydalanish muhimdir⁴⁶. Shu yondashuvni hisobga olib, vohada davlat tizimi vujudga kelganidan beri shaharsozlik va arxitektura, yozuv, san‘at va ilm-fan asoslari hamda hunarmandchilik va xo‘jalik sohalarida turlicha yangiliklarning yaratilishi, umuman, sivilizatsiya yutuqlari va madaniyatning yuqori darajadagi taraqqiyotini kuzatish mumkin.

IX-XIII asr boshlarida Xorazm madaniyati, san‘ati, adabiyoti va ilm-fan sohalarida yuksalish yuz berib, Xorazmdan buyuk olimlar va mutafakkirlar yetishib chiqqan⁴⁷. Ular jahon tamadduni rivojiga ulkan hissa qo‘shishgan. O‘rta asrlarda Xorazmning Markaziy Osiyo sivilizatsiyasi tizimida tutgan o‘rni va ahamiyatini belgilab bergan muhim jihatlardan biri shuki, X-XI asrlardan boshlab xorazmlik

⁴³ Всемирное общество по изучению, сохранению и популяризации культурного наследия Узбекистана. – Ташкент, 2019. – С. 85-90.; Проект «Культурное наследие Узбекистана в собраниях мира». – Ташкент, 2019. – С. 4, 14-23.

⁴⁴ Pidayev Sh. O‘zbekistonning qadimgi san‘at durdonalari – Luvr muzeyida // Fan va turmush, 2023. – №1. – B. 46-49.; Abdullayev M. O‘zbekiston madaniy merosi – Germaniyada // Fan va turmush, 2023. – №2. – B. 4-5.; Minovarov Sh. Vebaho ma‘naviy meros // Fan va turmush, 2023. – №1. – B. 42-45.

⁴⁵ Толстов С.П. Қадимги Хоразм маданиятини излаб. – Тошкент: Фан, 1964. – Б. 78-80.; Итина М.А. История степных племен Южного Приаралья // Тр. ХАЭЭ. Т. X. – М.: Наука, 1977. – 239 с.; Матякубов Х. Хоразм воҳаси бронза асри ва илк темир даври тарихи. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2017. – Б. 170-172.

⁴⁶ Қдырғиязов М.Ш., Ягодин В.Н., Мамбетуллаев М.М. ва бошқ. История цивилизации Хорезма. – Нукус: Qaraqalpaqstan, 2017. – С. 109-111.; Маткаримов Х.О. Хоразм цивилизациясининг тарихий-маданий белгилари // ҚарДУ хабарлари. 3-сон. – Қарши, 2020. – Б. 137-141.

⁴⁷ Хайруллаев М. Ўрта Осиёда илк уйғониш даври маданияти. – Тошкент: Фан, 1997; Жабборов И. Буюк Хоразмшоҳлар давлати (қадимги тарих саҳифалари). – Тошкент: Шарқ, 1999. – 144 б.; Бўриев О. Хоразм Маъмур академияси илмий меросининг кейинги асрлар илм-фани ривожига таъсири // Хоразм тарихи замонавий тадқиқотларда. – Тошкент. – Урганч, 2018. – Б. 297-302.

musulmonlar va imom olimlari Xorazmdan shimoli-sharqdagi hududlarda yashagan dasht chorvadorlari orasida islom dini ta'limotini chuqur targ'ib qilishda alohida o'rin egallashgan⁴⁸.

Xiva xonligi davrida o'ziga xos tarixiy-madaniy meros shakllangan. Bu davrda Xorazm me'morchilik va naqqoshlik maktabi, badiiy hunarmandchilik, amaliy san'at an'analari bilan ajralib turgan. Shu qatorda, adabiy meros boyitilgan, ta'lim tizimi va tarixnavislik rivojlangan⁴⁹. Hozirgi davrda Xorazm folklori hamda asrlar mobaynida ijod va ijro usullari bilan boyib kelgan xalq ashulalari, musiqa va raqs san'ati o'zbek xalqi ulkan tarixiy-madaniy merosining ajralmas qismidir.

Ikkinchi bobning "Xorazmning moddiy va nomoddiy madaniy merosi: milliy va umuminsoniy qadriyatlarni asrashning ahamiyati" deb nomlangan uchinchi paragrafida tarixiy obidalarni saqlash va ulardan turizm obyektlari, muzeylar va amaliy ehtiyojlarda foydalanish, madaniy merosni asrash kabi masalalar ko'rib chiqilgan.

Moddiy madaniyat merosi tarkibidagi yaxshi saqlanib kelgan me'moriy obidalardan nafaqat arxitektura eksponati va muzey sifatida foydalanish, balki ulardan madaniy-ma'rifiy, turistik markazlar hamda mehmonxona va savdo-sotiq do'konlari, choyxona va ovqatlanish maskanlari maqsadlarida foydalanish masalalariga doir turlicha yondashuvlar mavjud⁵⁰. Bu borada yodgorliklarning o'z tarixiy va badiiy ahamiyatini saqlagan holda, ularni amaliy ehtiyojlarda oqilona foydalanishga moslashtirish taklif etiladi.

Shuningdek, qadimiy Xorazm paxsadevor me'moriy obidalarining texnik holatlari o'rganilgan⁵¹ hamda vohada arxeologik yodgorliklarning buzilish tezligi aniqlangan. Ular orasida ba'zi bir shahar xarobalarining inson omili, xo'jalik faoliyati ta'sirida, 20-25 yillardan so'ng butunlay vayron bo'lishi taxmin qilingan hamda xom g'isht va paxsadan qurilgan mudofaa devorlari buzilishining boshqa sabablari aniqlangan va yodgorliklarni ta'mirlashga oid tavsiyalar ilgari surilgan⁵².

Tadqiqotda nomoddiy madaniy merosni asrash, uni umuminsoniy qadriyatlar va milliy an'analar sifatida o'rganish va keng targ'ib qilish ahamiyati ochib berilgan. Xorazm aholisi turmush tarzida yer va suvga, mehnat va yaratuvchanlikka ehtirom an'analari "Avesto"dan meros, Navro'z marosimlari⁵³ va ular bilan bog'liq holda

⁴⁸ Қдырнийазов М.Ш. Культура Хорезма в XIII-XIV вв. – Самарканд: Zarafshon, 2015. – С. 247-248.

⁴⁹ Қўшжонов М. Адабий мерос // Хива – минг гумбаз шаҳри. – Тошкент: Шарқ, 1997. – Б. 93-94.; Муниров Қ. Хоразмда тарихнавислик (XVII-XX аср бошларида). – Тошкент: Ғофур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 2020. – 192 б.

⁵⁰ Arxitektura yodgorliklarini ta'mirlash // Mas'ul muharrir: X.Sh.Po'latov. – Toshkent: Ta'lim nashriyoti, 2009. – B. 120-125.

⁵¹ Дурдиева Г. Қадимий Хоразм пахсадевор меъморий ёдгорликлари. – Хива: Хоразм Маъмун академияси нашриёти, 2017 – 146 б., Дурдиева Г.С., Заргаров А.К., Усмонов В.Ф. Хоразм пахсадевор меъморий ёдгорликлари бўйича ўтказилган техник тадқиқотлар натижалари // Меъморчилик ва қурилиш муаммолари. – Самарқанд, 2013. – №3. – Б. 6-8.; Дурдиева Г.С. Жанубий Оролбўйи пахсадевор қалъаларининг қурилиш услублари ва материаллари // Меъморчилик ва қурилиш муаммолари. – Самарқанд, 2014. – №2. – Б. 22-25.

⁵² Антонова Н., Болелов С., Никифоров М. Оценка скорости и моделирование разрушения археологических памятников правобережного Хорезма // Археология Узбекистана, 2022. – №1. – С. 40-50.

⁵³ Аширов А. "Авесто"дан мерос маросимлар. – Тошкент: А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2001. – 32 б.; Абдуллаев Х. "Авесто" ва Хоразм фольклори // O'zbekiston tarixi, 2001. – №3. – Б. 38-41.; Мирзаев Т., Жўраев М. "Авесто" мифологияси ва ўзбек халқ оғзаки ижоди // O'zbekiston tarixi, 2001. – №3. – Б. 30-37.

ajdodlardan avlodlarga meros bo‘lib o‘tgan xalq qo‘shiqlari, musiqa va raqs san‘ati takomillashib borgani qayd etilgan⁵⁴. Bu borada “Lazgi raqsi markazi” ni tashkil etish, “Lazgi” xalqaro festivalini o‘tkazishning yo‘lga qo‘yilishi katta ahamiyatga ega.

Tadqiqotning uchinchi bobi **“Tarixiy-madaniy merosga yangicha munosabatni shakllantirish masalalari”** deb nomlangan. Uning “Hunarmandchilik sohasi va amaliy san‘atining tiklanishi jarayonlari” sarlavhali 1-qismida mustaqillik yillari Xorazmda hunarmandchilik tarmoqlari, amaliy san‘at va sohada “Ustoz-shogird” an‘analarining qayta tiklanishi jihatlari ochib berilgan.

Sovet davrida badiiy hunarmandchilik, amaliy san‘at buyumlarini ommaviy ishlab chiqarish maqsadida artellar va fabrikalar tashkil qilinib, shu korxonalarda naqqoshlik, badiiy kulolchilik, gilam to‘qish va boshqa hunar tarmoqlari bo‘lgan. Sohaga tegishli rasmiy boshqaruv doiralari tomonidan ishlab chiqarishni ancha kengaytirish va buyumlarning g‘oyaviy saviyasini takomillashtirish orqali ularni ko‘paytirish talab etilardi. Natijada, artellar va fabrikalarning hunar tarmoqlarida milliy amaliy san‘atining rivojlanishida turli muammolar vujudga kelgan, ayrim hunarmandchilik turlari va xalq naqqoshlik amaliy san‘ati an‘analarining unutilib ketishi boshlangan⁵⁵.

Hunarmandchilik tarmoqlarida yuzaga kelgan noan‘anaviy jarayon O‘zbekistonning barcha viloyatlari singari⁵⁶, Xorazmga ham tegishli edi va XX asrning 90-yillari boshlariga kelib, gilamga tushirilgan portret, panorama kartinalari Xiva gilamchiligida butun bir yangi hodisa sifatida namoyon bo‘ldi⁵⁷.

Mustaqillik davrida hunarmandchilik sohasi va amaliy san‘atga milliy-madaniy meros boyligi sifatida e‘tibor qaratila boshlandi. So‘nggi yillarda O‘zbekistonda vujudga kelgan butunlay yangi sharoitda xalq hunarmandchiligining taraqqiyoti uchun keng imkoniyatlar yaratildi⁵⁸.

Ushbu yo‘nalishga doir Xorazm viloyatida bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilib, Xonqa, Xiva, Yangiariq, Bog‘ot, Urganch tumanlarida va Xiva shahrida hunarmandchilik markazlari, muzey – ustaxonalari tashkil etildi va “Ustoz-shogird” maktablarining faoliyati yangi asoslarda rivojlandi⁵⁹. Mazkur jarayon Xorazmda an‘analari yo‘qolib ketishi xavf-xatari bo‘lgan hunarmandchilik tarmoqlarini qayta tiklash va hunarmand ustalar sulolalari faoliyatini davom ettirishga ko‘maklashdi⁶⁰.

⁵⁴ Матёкубова Г. “Офатижон Лазги”. – Тошкент: Фафур Гулом номидаги нашриёт, 1993; Тўхтасимов Ш. Қадимий “Лазги” аънаналари // *Moziydan sado*, 2020. – №4/88. – Б. 42-43.

⁵⁵ Акилова К.Б. Народное декоративно-прикладное искусство Узбекистана XX века (проблемы развития). – Ташкент: Фан, 1998. – 201 с.

⁵⁶ Остонов О.А. XX аср охири – XXI аср бошларида Зарафшон воҳаси хунармандчилиги тарихи. – Тошкент: Lesson Press, 2023. – Б. 121-122.

⁵⁷ Хива минг гумбаз шаҳри. – Тошкент: Шарқ, 1997. – Б. 117.

⁵⁸ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017-йил 17-ноябрдаги ПФ-5242-сон “Хунармандчиликни янада ривожлантириш ва хунармандларни ҳар томонлама қўллаб-қувватлаш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Фармони.

⁵⁹ “Hunarmand” uyushmasi Xorazm viloyat boshqarmasining joriy arxivi “Xunarmand” uyushmasi Xorazm viloyati boshqarmasining 2018, 2019-yillardagi faoliyati haqidagi hisobotlar.

⁶⁰ Саидова С. Ўзбек халқ амалий санъати ва “Устоз-шогирд” аънаналари // XXI асрда фан ва бадий таълим интеграциясининг ривожланиш истикболлари. – Тошкент: Lesson press, 2022. – Б. 112-113.

Uchinchi bobning “Jamiyatda tarixiy-madaniy merosga yangicha munosabatni shakllantirish muammolari” deb nomlangan ikkinchi qismida Xorazm viloyati aholisi orasida tarixiy-madaniy merosning tutgan o‘rni va ahamiyati masalalari ko‘rib chiqilgan.

Mavzuga oid ijtimoiy fikrni so‘rovnoma orqali o‘rganish uslubi qo‘llanilgan. Ijtimoiy tadqiqotlar Xiva, Hazorasp, Xonqa, Bog‘ot, Gurlan va Yangiariq tumanlarida amalga oshirilgan⁶¹, shuningdek, muzeylar, hunarmandchilik va amaliy san‘atga oid ko‘rgazmalarga tashrif buyurishning ijtimoiy faollik darajasi o‘rganildi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, axborotchilardan 50% so‘rovnomaga jiddiy yondashib, bir necha masalalar bo‘yicha takliflar va muammolarning mavjudligini bildirishdi, 30% informatorlar savollarga yuzaki yondashdi va 2% hech qanday munosabat bildirmadi, 10% tarixiy-madaniy meros deganda Xiva Ichan qal‘a me‘moriy kompleksi va 8% ziyoratgohlar haqida ma‘lumot berdi. Shuningdek, axborotchilarning ko‘pchiligi tomonidan muzeylar faoliyatini zamonaviy talablarga mos ravishda takomillashtirish zaruriyatiga doir masala ilgari surildi.

Xiva “Ichan-qal‘a” davlat muzey-qo‘riqxonasi hududida 53 ta arxitektura yodgorliklari joylashgan. Me‘moriy obidalaridagi 15 ta doimiy ko‘rgazmalar hamda muzey ekspozitsiyalari orqali tarixiy-madaniy meros namunalari namoyish qilinadi⁶².

Tarixiy-madaniy merosni tiklash, asrash va targ‘ib qilishga oid “Ichan-qal‘a” davlat muzey-qo‘riqxonasi, Xorazm Ma‘mun akademiyasi, Urganch davlat universiteti xodimlari tomonidan davriy matbuotda va maxsus jurnallarda maqolalar e‘lon qilish izchil yo‘lga qo‘yilgan⁶³. Ma‘mun akademiyasi qoshida me‘moriy yodgorliklarning texnik holatini va qadimiy xattotlik san‘atini o‘rganish bo‘yicha “Ustoz-shogird” maktabiga asos solingan⁶⁴. Tadqiqotda yosh avlod va keng jamoatchilik vakillari orasida tarixiy-madaniy meros va milliy o‘zlikning aloqadorligini hamda moddiy va ma‘naviy meros qadriyatlarining uyg‘unligini anglab bilishning ahamiyati qayd etilgan. Shu bois tarixiy-madaniy merosni o‘rganish va bilimlarni boyitish borasida davlat tashkilotlari, o‘quv va ma‘naviy-ma‘rifiy muassasalar, ommaviy axborot vositalari va keng jamoatchilik hamkorligini yo‘lga qo‘yish mavjud muammolarni hal qilishga ko‘maklashadi.

Uchinchi bobning oxirgi qismida “Xorazm vohasida tarixiy-madaniy yodgorliklarni o‘rganish va tiklashda xalqaro hamkorlik masalalari” mavzusi ochib berilgan.

⁶¹ Tadqiqotlar talabgor tomonidan 2022-yilda olib borilgan.

⁶² Бобожонов К. “Ичан қалъа” давлат музей-қўриқхонаси // Маданий меърос объектларини асраш, қайта тиклаш, муҳофаза қилиш ва улардан фойдаланишнинг долзарб масалалари. – Урганч, 2019. – Б. 122-125.

⁶³ Матякубов Ш. Сайёҳлик – истиқболли соҳа // Тўмарис авлоди, 2018. 7-сон; Искандаров Р. Ўтмиш билан боғловчи кўзгу // Хива тонги, 2018, 15-май; Собиров С., Комилов Б. Хоразмда тасвирий санъат ва ҳайкалтарошликнинг вужудга келиши // Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси, 2021. 5-сон. – Б. 201-205.; Мирзаев А.А. Зиёрат туризмнинг ривожлантиришнинг ўзига хос хусусиятлари // Хоразм Маъмун академиясининг ахборотномаси, 2021. 4-сон, – Б. 132-135.

⁶⁴ Дурдиева Г. Қадимий Хоразм пахсадевор ёдгорликлари. – Хива: Маъмун академияси, 2017. – Б. 7; Заргарова Н. Хива меъморий ёдгорликларидаги хаттотлик намуналари. – Хива: Хоразм Маъмун академияси, 2022. – 85 б.

1995-yilda YUNESKO tomonidan chop etilgan “Markaziy Osiyo sivilizatsiyasi tarixi” nomli kitobda mintaqa sivilizatsiyasi yodgorliklarini o‘rganish, tiklash va targ‘ib qilish ishlarida hamkorlikni yo‘lga qo‘yish dolzarbligi qayd etildi⁶⁵.

Bu vazifani amalga oshirishda Xorazm sivilizatsiyasi, qadimiy madaniyati tarixiga oid Qoraqalpog‘iston-Avstraliya arxeologik ekspeditsiyasining ishlari e‘tiborga molik⁶⁶. Mustaqillik yillarida Rossiya Federatsiyasi institutlari va muzeylari bilan arxeologik-etnologik meros yo‘nalishidagi tadqiqotlar davom etib, yangi ilmiy ma‘lumotlar qo‘lga kiritildi⁶⁷.

BMTning “Madaniy-ma‘rifiy turizm va hunarlarni rivojlantirish” loyihasi hamda Kaunterparter Konsorsium huzuridagi “Hunarmandlarga yordam” loyihasi bo‘yicha katta ishlar amalga oshirilib, ular Xorazmda amaliy san‘at sohalari – koshinkorlik, ganch va yog‘och o‘ymakorligi, miniatyura san‘ati va loy o‘yinchoqlar yasash tiklanishiga ko‘maklashdi⁶⁸.

Urganch davlat universitetining Lyublin texnologiya universiteti bilan ishlab chiqilgan va 2019–2022-yillarda amalga oshirilgan “3D Digital Silk Road” qo‘shma loyihasi bo‘yicha madaniy merosni tadqiq etishda bir qator universitetlar bilan birgalikdagi ishtiroki yangicha yondashuv bo‘ldi. Mazkur loyiha tarixiy yodgorliklarni o‘rganish, ta‘mirlash va saqlash hamda O‘zbekistonda turizmni rivojlantirish masalasiga oid bo‘lib, YUNESKOning xalqaro standartlari va talablariga mos keladi⁶⁹.

Natijada Xivadagi Juma masjidi, Pahlavon Mahmud va Sayid Alovuddin maqbaralari, Ko‘hna Ark kabi yodgorliklar hamda muzey fondlarida mavjud Xorazm milliy liboslarning nusxalari 3D skanerlashtirildi va tadqiqotlar ma‘lumotlari ilmiy to‘plamlarda e‘lon qilindi⁷⁰.

Bunday mazmundagi loyihalar madaniy obidalarni tadqiq etish va qayta tiklashning dolzarb muammolarini ko‘rib chiqish hamda shunga mansub jahon tajribasini o‘rganish, tarixiy-madaniy merosni muhofaza qilish borasida milliy tizimni takomillashtirishga xizmat qiladi.

⁶⁵ History of civilization of Central Asia. Vol. II. – Paris: UNESCO Published, 1995. – P. 76.

⁶⁶ Helms S.W., Yagodin V.N. Excavations at Kazakliyatgan in Tashkirman Oasis of Ancient Chorasnia: A preliminary Report // Iran, 1997. Vol. 35. – P. 43-65.; Ходжаниязов Г., Ягодин В.Н., Хелмс С.У., Макларен Б.П. Раскопки на Акчаханкале // Археологические исследования в Узбекистане, 2000. – Самарканд, 2001. – С. 175-180.

⁶⁷ Седов А.В. Археологические исследования музея Востока в Центральной Азии // Центральная Азия на перекрестке мировых цивилизаций. Сборник аннотаций. – Хива, 2021. – С. 9-12.; Царева Е.Г. Фрагменты узелкового ковра из позднеантичного замка Барактам 1 и проблема формирования симметричной системы узловязания в ковродельческой культуре населения Евразии // Центральная Азия на перекрестке мировых цивилизаций. Сборник аннотаций. – Хива, 2021. – С.16.

⁶⁸ Абдуллаев М.С. Мустақиллик йилларида Хоразм амалий санъатининг тикланиш жараёнлари // Биринчи Президент И.А. Каримов даврида Ўзбекистонда тарих фанининг юксалиши. – Самарканд, 2018. – Б. 34-38.

⁶⁹ Milosz E., Mukhamedova D., Kayumov R., Eshchanov B., Abdullaev U. The “3D Digital Silk Road” project as an Example of the use of 3D Computer technology to Digitise the Silk Road monuments in Uzbekistan // Computer technologies in sharing the cultural heritage and education of the Silk Road from Uzbekistans. – Lublin, 2022. – P. 11-18.

⁷⁰ Tangible Cultural Heritage of the Silk Road from the Area of Modern Uzbekistan. T. 1. – Lublin, 2021. – 170 p.; Intangible Cultural Heritage of the Silk Road from the Area of Modern Uzbekistan. T. 2. – Lublin, 2021. – 179 p.; Computer technologies in sharing the cultural heritage and education of the Silk Road from Uzbekistans. – Lublin, 2022. – 230 p.; Cultural Heritage of Uzbekistan. From Petroglyphs to the Present Days. – Lublin, 2022. – 178 p.

XULOSA

Tadqiqot natijasida quyidagi asosiy xulosalarga kelindi:

1. XIX asrning 70-yillari – XX asr boshlarida G‘arbiy Yevropa sharqshunoslari yozma manbalarga asoslanib, Xorazm madaniyati tarixini ilmiy nuqtai nazardan yoritishga harakat qilishgan. Ayni shu paytda, Xivaning Rossiya imperiyasiga qaramlik davrida, voha tarixiy-madaniy yodgorliklarining rossiyalik sharqshunolar, o‘lkashunolar va geograflar tomonidan bevosita Janubiy Orolbo‘yi hududlarida o‘rganish imkoni vujudga kelgan. Natijada Xorazm vohasi tarixiy-madaniy merosi obidalariga oid dastlabki ma’lumotlar qo‘lga kiritilib, nashr etilgan. Biroq bu davrda tarixiy tadqiqot usullari ishlab chiqilmagan edi.

Mazkur davrda Rossiya imperiyasi tomonidan Xiva xonligi saroyida mavjud eski qo‘lyozmalar va madaniy boyliklar talon-taroj qilinib, ular Peterburgga yuborildi. Umuman olganda, Turkistonning turli viloyatlarida qadimiy qo‘lyozmalar, tilla va kumushdan yasalgan eski tangalar, tasviriy san‘at namunalari va badiiy hunarmandchilik buyumlarini yig‘ib olish va tashqariga olib chiqish jarayonida mustamlakachi amaldorlar, harbiylar va sanoat agentlari faol ishtirok etishgan.

2. XX asrning 20–30 yillaridan boshlab, ijtimoiy va madaniy hayotni sovetlashtirish, “yangi madaniyatni” targ‘ib qilish, dinga qarshi kurashish kabi ishlar sobiq davlat hududlarida keng miqyosda amalga oshirildi. Rasmiy-ma’muriy doiralar tomonidan uzoq o‘tmishdan saqlanib qolgan urf-odatlar, an’analar va xalq sayillariga diniy mohiyat berish va ularning ma’naviy ahamiyatini inkor etish talab qilingan. Xorazm vohasida tadqiqotlar olib borgan turli gumanitar fan sohasining mutaxassislari ushbu mafkura talablarini hisobga olishga majbur bo‘lishgan. Biroq sobiq davrda haqiqiy ilmiy tadqiqotlar ham amalga oshirilib, Xorazm vohasining tarixiy-madaniy merosini o‘rganilishiga katta hissa qo‘shilgan.

3. Xorazm vohasining tarixiy-madaniy me’rosi obidalarini o‘rganishda XX asrning 20-yillari oxiri – 30-yillarida olib borilgan dastlabki arxeologik tadqiqotlar va Xorazm arxeologik-etnografik ekspeditsiyasining tashkil etilishi hamda uning 50 yillik ilmiy faoliyati katta ahamiyat kasb etdi. Izchil izlanishlar va kashfiyotlar natijasida, vohada ilgari ilmiy jihatdan tadqiq etilmagan qadimiy shaharlar madaniyati, arxitektura va mudofaa tizimi, tasviriy san‘at namunalari, turli davrlarga oid moddiy va nomoddiy meros yodgorliklari haqida ko‘plab ma’lumotlar to‘plandi va “Xorazm sivilizatsiyasi” tushunchasi ilk bor fanga kiritildi.

4. Voha tarixiy-madaniy merosining o‘rganish jarayonida arxeologlar va etnograflar, manbashunoslar, tarixchilar, tilshunoslar, san‘atshunoslar va arxitektorlar ishtirok etib, keng miqyosda fanlararo tadqiqotlar olib borildi. Natijada moddiy madaniy meros obyektlari qatorida badiiy hunarmandchilik va amaliy san‘at, an’anaviy urf-odatlar va marosimlar, tarixiy rivoyatlar, qo‘lyozma kitobat san’ati, adabiy meros, tarixnavislik, musiqa va raqs san’ati, qadimiy ildizlarga ega xalq bayramlari va tomoshalari o‘rganildi. Tadqiqotlar natijalari ilmiy to‘plamlar,

monografiyalar va ko'p sonli maqolalarda yoritilib, tarixiy-madaniy merosga oid bilimlar doirasi ancha kengayib bordi.

5. Mustaqillik yillarida xalqimizning boy tarixiy-madaniy merosi, moddiy va ma'naviy madaniyati, arxitektura va san'at yodgorliklarini o'rganilishi jarayonida yangi ilmiy tadqiqotlarning imkoniyatlari paydo bo'ldi. Mavzuga oid avvalgi yillarda nashr etilgan adabiyotlar, tarixshunoslik ma'lumotlari qayta ko'rib chiqildi va mavjud noxolis holatlar, qarashlarning tanqidiy baholanishi qatorida, ijobiy yondashuvlar qayd etildi. Yangi tadqiqotlar natijalari va ilmiy ma'lumotlarni umumlashtirgan nashrlar qatorida, tarixiy-madaniy merosni targ'ib qiluvchi, keng kitobxonlar ommasiga mo'ljallangan va ilmiy ommabop usulda yozilgan adabiyotlar soni ko'paydi. Bugungi kunda madaniy meros obyektlarini, muqaddas qadamjolarini ta'mirlash, qayta tiklash va muhofaza qilish ishlari dolzarb vazifaga aylanib, keng miqyosda amalga oshirilmoqda.

6. Xorazmda qadimdan rivojlangan ilm-fan asoslari, san'at, yozuv va ma'naviy qadriyatlar hamda turli sohalarga oid amaliy bilimlar darajasi vohada tarixiy-madaniy merosni boyitishga xizmat qilib, o'ziga xos shaharlar madaniyati, davlatchilik tizimi, mahalliy sivilizatsiyasining vujudga kelishi va ravnaq topishiga ko'maklashgan. Shu tufayli Xorazmdan Muhammad Muso al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Mahmud Az-Zamaxshariy, Najmiddin Kubro kabi buyuk olimlar va mutafakkirlar yetishib chiqib, ular jahon tamadduni rivojiga ulkan hissa qo'shishgan.

O'rta asrlarda Xorazm islom sivilizatsiyasi ilm-fan markazlaridan biriga aylanib, XI asrning boshlarida Gurganj shahrida "Majlisi ulamo" nomini olgan ilmiy jamiyat, o'ziga xos akademiya shakllangan. Bu yerda buyuk olimlar turli fan sohalariga oid tadqiqotlar olib borishgan, akademiya ilmiy merosidan keyingi asrlarda ilm-fan sohalarida keng foydalanilgan.

7. Xorazmning nomoddiy merosi, ma'naviy madaniyat namunalari orasida uzoq o'tmishda yaratilgan va asrlar mobaynida saqlanib qolgan afsonalar, tarixiy rivoyatlar, xalq og'zaki ijodi obidalari alohida ahamiyat kasb etadi. Ular turli mutaxassislar tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlar natijasida yozib olingan. Tarixiy rivoyatlarni alohida nashr sifatida, shu jumladan, "Maktab kutubxonasi" bo'limida e'lon qilish, yosh avlodni tarbiyalashga, ularning ma'naviyatini boyitishga, madaniy meros qadriyatlarini o'rganish va asrashga xizmat qilardi.

Moddiy-madaniy meros, me'moriy-arxeologik obyektlar ahvoliga zarar keltiruvchi ekologik va texnogen omillar aniqlangan. Tarixiy yodgorliklarni ta'mirlash, saqlash va targ'ib qilish borasida ilmiy muassasalar, davlat va nodavlat tashkilotlari hamda keng jamoatchilik vakillarining birlashgan faoliyatini yo'lga qo'yish ijobiy natijalarga olib keldi, eng avvalo, tarixiy-madaniy merosning O'zbekiston zamonaviy jamiyatida ahamiyatini chuqurroq anglashga ko'maklashdi.

8. So'nggi yillari Yangi O'zbekistonda badiiy hunarmandchilik va amaliy san'at an'analarini qayta tiklash va ularni rivojlantirish uchun muhim huquqiy, iqtisodiy va ma'naviy sharoit yaratilib, hunarmandchilik sohasiga bo'lgan e'tibor davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Bunday yondashuv Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm

viloyatida mamlakatimizning boshqa viloyatlari singari, hunarmandchilik tarmoqlarida unutilayotgan an'analarni tiklash, hunarmandlarning ijtimoiy mavqeini oshirish, o'z sohasini kasanachilik va tadbirkorlik ko'rinishlarida rivojlantirish, shuningdek, hunarmandchilikda avlodlar vorisligini ta'minlash, "ustoz-shogird" tizimini rag'batlantirish va hunarmand yoshlarni mehnatsevarlik, insonparvarlik va milliy qadriyatlarga sadoqat ruhida tarbiyalashga asos bo'ldi.

9. Tarixiy-madaniy merosga munosabat muamolarini o'rganish maqsadida, Xorazm viloyatining aholisi orasida so'rovnoma orqali olib borilgan ijtimoiy tadqiqotlar – ijtimoiy fikrni o'rganish natijalariga ko'ra, axborotchilarning aksariyati so'rovnomadagi savollarga qoniqarli javoblar berib, masala bo'yicha ijobiy bilimlarini namoyish etishdi. Shu bilan birga, ayrim axborotchilar orasida tarixiy-madaniy merosga oid bilimlar darajasi qoniqarsiz, yetarli emasligi aniqlangan. Tarixiy-madaniy merosni o'rganish va bilimlarni boyitish sohasida mavjud muamolarni hisobga olib, ularga barham berish ishlarini tizimli yo'lga qo'yish katta ahamiyat kasb etadi.

Shu qatorda, zamonaviy globallashtirish, ommaviy madaniyat ta'sirining kuchayishi sharoitida tarixiy-madaniy meros qadriyatlarini asrash va uni kelgusi avlodlarga yetkazish dolzarb vazifaga aylanib bormoqda.

Tadqiqot natijalari quyidagi **taklif va tavsiyalarni** ishlab chiqish imkonini berdi:

Xalqaro tajribani hisobga olgan holda, me'moriy – arxeologik meros obyektlarini ta'mirlash, qayta tiklash va muhofaza qilish sohasida malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish, muzey ishida, tarix va madaniyat yodgorliklarining keng miqyosdagi targ'ibotida zamonaviy axborot texnologiyalari, innovatsiya yutuqlari va 3D modellashtirish usullaridan samarali foydalanish maqsadga muvofiq.

Yosh avlod va umuman, keng jamoatchilik vakillari orasida tarixiy-madaniy merosga yangicha munosabat va hurmat ruhini shakllantirish jarayonida "Tarixiy-madaniy meros va yoshlar tarbiyasi" mavzusiga oid ilmiy-ommabop filmlarni yaratish va turkum teleko'rsatuvlar tashkillashtirish, badiiy hunarmandchilik va amaliy san'at an'analarini o'rganishga talaba yoshlarni jalb etish, umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'lkashunoslik darslarini kengaytirish, Xorazm viloyati va Qoraqalpog'iston Respublikasida joylashgan muhim tarixiy obidalar bo'ylab yangi turizm yo'nalishlarini tashkil etish tavsiya etiladi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ
PHD.03/30.06.2021.Tar.55.05 ПРИ УРГЕНЧСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ
УНИВЕРСИТЕТЕ**

УРГЕНЧСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ

ОТАМУРОТОВА РОВИЯЖОН ОЛИМБОЕВНА

**ПРОБЛЕМЫ ВОССТАНОВЛЕНИЯ И ИЗУЧЕНИЯ ИСТОРИКО –
КУЛЬТУРНОГО НАСЛЕДИЯ В ХОРЕЗМЕ**

07.00.01 – История Узбекистана

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО
ИСТОРИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Ургенч – 2024

Тема диссертации доктора философии (PhD) по историческим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии за № В2021.4.PhD/Таг985.

Диссертация выполнена в Ургенчском государственном университете.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (www.urdu.uz) и на информационно-образовательном портале «Ziyonet» (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель:	Абдуллаев Уткир Исмаилович доктор исторических наук, профессор.
Официальные оппоненты:	Карлибаев Максет Абдибаевич доктор исторических наук, старший научный сотрудник, Худайберганов Комилжон, кандидат исторических наук, доцент.
Ведущая организация:	Каракалпакский государственный университет.

Защита диссертации состоится «28» июни 2024 года в 10⁰⁰ часов на заседании Научного совета PhD.30.06.2021.Таг.55.05 при Ургенчском государственном университете. (Адрес: 220100, г. Ургенч, ул. Хамид Олимжон, 14. Тел.: (99862) 224-67-00; факс: (99862) 224-57-00, e-mail: info@urdu.uz)

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ургенчского государственного университета (зарегистрирована под № 1223). Адрес 220200, г. Ургенч, ул. Х.Алимджана, 14. Тел.: (998-62) 224-6700; факс: (998-62) 224-6700; e-mail: arm@urdu.uz

Автореферат диссертации разослан «10» июни 2024 года.

(реестр протокола рассылки № 3 от «10» июни 2024 года.



М.К. Сармбаев,
Председатель научного совета по присуждению ученых степеней, доктор исторических наук, доцент,

Х.Х. Матякубов,
Ученый секретарь научного совета по присуждению ученых степеней, (PhD), доцент,

М.М. Матякубова,
И.О. Председатель научного семинара при Научном совете по присуждению ученых степеней, кандидат исторических наук, доцент.

Введение (аннотация диссертации доктора (PhD) философии)

Актуальность и необходимость темы диссертации. В настоящее время усиливается стремление к широкому изучению особенностей развития истории всемирного культурного наследия и цивилизации. Поэтому в стратегических программах, разработанных международными организациями, собственно ЮНЕСКО, большое значение приобретает важная цель восстановления, охраны и сохранения будущему поколению памятников материальной и духовной культуры. В этой сфере, одной из актуальных является задача бережного отношения, изучения и популяризации историко-культурного наследия в качестве национальных и общечеловеческих ценностей.

Учитывая богатое прошлое истории культуры Центральной Азии, в том числе, Узбекистана, а также её важное место в системе всемирной цивилизации, изучению и популяризации историко-культурного наследия этого региона уделяется большое внимание в мировом масштабе. Вопросы консервации и реставрации объектов культурного наследия региона исследуются в ряде научных центров мира. Об актуальности и необходимости этих исследований, их научного и духовно – просветительского значения свидетельствует создание в Самарканде Международного института исследований Центральной Азии, в соответствии с резолюцией Генеральной конференции ЮНЕСКО (1995 г.), а также деятельность в данном направлении различных научных учреждений и международных гуманитарных организаций.

В последние годы, в новом Узбекистане созданы широкие возможности для изучения исторических корней культурных традиций нашего народа, восстановления национальных духовных ценностей, а также их исследования с точки зрения цивилизационного подхода. Этим вопросам придается особое значение в рамках государственной политики, так как «...в изучении древней и богатой истории нашей родины, расширении круга научных работ в этом плане, необходимо всестороннее поддерживать учёных гуманитарной сферы»⁷¹. Поэтому, наряду с другими историко-культурными центрами Узбекистана, актуальное значение имеет выявление состояния исторических памятников Хорезмского оазиса, использование передовых технологий и достижений сферы инноваций в процессе консервации и сохранения объектов материального и духовного наследия. Наряду с этим, анализ проблем формирования нового отношения в обществе к историко-культурному наследию, его восстановления и изучения на примере Хорезмского оазиса, а также определения места и значения культуры оазиса в системе цивилизаций Центральной Азии и научной выводы дают возможность обогащения культуры Узбекистана новыми данными.

Настоящая диссертация в определённой степени послужит выполнению задач, поставленных в распоряжении Президента Республики Узбекистан от 16 января 2018 г. Р-5181 «Об улучшении защиты и использовании объектов материально культурного и археологического наследия», в Указе от 5 января 2019 г. УП-5611 «О дополнительных мерах по ускоренному развитию туризма в

⁷¹Обращение Президента Республики Узбекистан к Олий Мажлису // Народное слово. 2018, 29 декабря.

республике Узбекистан», в Постановлении от 30 августа 2019 г. ПП-4433 «О мерах по совершенствованию системы привлечения молодёжи к науке и поддержки её инициатив», а также в других нормативно-правовых документах.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Диссертация выполнена в рамках приоритетного направления развития науки и технологий республики I. «Демократическое и правовое общество, духовно-просветительское, культурное развитие, формирование инновационной экономики».

Степень изученности проблемы. Результаты изучения проблемы, развития знаний и вопросы историографии раскрыты по отдельным периодам в первой главе диссертации.

Особенность изученности проблемы состоит в том, что в исследованиях истории и культуры Хорезмского оазиса, с самого начала, важное значение имели письменные источники разных периодов, а также данные, получившие отражение в трудах членов посольских и дипломатических миссий, путешественников, посещавших Хивинское ханство. В 70-е годы XIX века, европейские востоковеды, основываясь на письменные источники, положили начало изучению исторического прошлого Хорезма с научной точки зрения. В период зависимости Хивы Российской империи, русские востоковеды и краеведы имели возможность проводить исследования непосредственно на территории Хорезмского оазиса и сбора материалов историко-археологического и этнографического содержания. Однако в это время методы исторического исследования оставались не разработанными.

В советский период, несмотря на классовый подход к оценке исторических процессов, особенностей идеологической политики и отрицания в официальных административных кругах духовного значения традиций народных обычаев и обрядов, в сфере изучения материальных и нематериальных ценностей историко-культурного наследия проводились также фундаментальные научные исследования, которые позволили ввести в научный оборот понятие «цивилизации Хорезма».

В годы независимости открылись широкие возможности освещения истории культуры Узбекистана и проведения новых научных исследований, в том числе на основе международного сотрудничества.

